



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI, MARKAZIY
BANK VA UNING VAZIFALARI**

Bazarova Mamlakat Supiyevna

Osiyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi bank tizimi, uning tuzilishi va Markaziy bankning asosiy vazifalari batafsil tahlil qilingan. O'zbekiston bank tizimi ikki darajali bo'lib, Markaziy bank va tijorat banklarini o'z ichiga oladi. Markaziy bank mamlakatning pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi va bank tizimining barqarorligini ta'minlovchi asosiy moliyaviy institut sifatida belgilangan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, markaziy bank, tijorat banklar faoliyati, kredit institutlari.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bank tizimlari iqtisodiyotning boshqa tizimlariga nisbatan kuchaytirilgan nazorat va tekshiruv obyektlari hisoblanadi, chunki tijorat banklari o'z mijozlari hisoblangan davlat tashkilotlari, tijorat korxonalari va xususiy shaxslarning manfaatlari himoyalaniishi uchun javob beradi. Shu o'rinda, Markaziy bank tijorat banklari tomonidan zamon talablariga javob beradigan kredit operatsiyalarini ta'minlash maqsadida yaqin kelgusidagi istiqbollari va rivojlanish strategiyasini belgilaydi. Kreditlash tizimi sohasidagi bosh maqsad, bankning kredit riskini samarali boshqarish orqali mijozlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatish, bank tizimi moliyaiy barqarorligini ta'minlash, tijorat banklarining faoliyatdan asosiy maqsadi bo'lmish daromadlilikini oshirish va albatta iqtisodiyotni rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston tijorat banklari, avvalo, ixtisoslashgan kredit institutlari sifatida ko'zga ko'rinda boshladi. Bu, bir tomondan xo'jaliklarning vaqtincha bo'sh mablag'larini jalb etishi, boshqa tomondan esa jalb etilgan mablag'lar hisobidan korxonalar, xususiy tadbirkorlar va aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etdi. Xorijiy va mahalliy ekspertlarning qayd etishicha, so'nggi yillar davomida respublikada asosiy tamoyil — ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank faoliyatida universallashtirishni chuqurlashtirish kuzatilmoqda. Bu esa bank operatsiyalari mazmuni va kredit munosabatlari mohiyatini oldindan belgilab beradi. Mazkur yo'nalishda banklar o'z faoliyatini dunyoviy amaliyotning "oltin" printsiptan kelib chiqqan holda olib bordilar. Ya'ni, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning jozibadorligi tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish keng imkoniyati bilan mutanosib holda rivojlantirildi. Davom ettirilgan islohotlar bank faoliyatini aholining turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, ilgari qabul qilingan "Iste'mol krediti to'g'risida"gi va "Ipoteka to'g'risida"gi qonunlar doirasidagi faolligini yanada kuchaytirdi. O'zbekiston tijorat banklari respublikamizdagi va jahon bank hamjamiyatidagi yangi voqelikka javoban o'zlari taklif etayotgan xizmatlari to'plamini kengaytirdi, bozorga yangi bank mahsulotlarini chiqardi va ayni paytda moliya institutlari faoliyatining xalqaro standartlarini faol joriy etishga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kirishdi. 2022 yilning oktyabr oyida esa O'zbekiston Respublikasi "Ipoteka to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi. Ko'chmas mulkni xarid qilish uchun kreditlar ajratishning huquqiy mexanizmini o'zida mustahkamlagan ushbu qonun hujjati bank ipotekaviy kreditlash rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad ko'chmas mulkka garov qo'yishda yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga solishdan iborat edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi "Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori doirasida uy-joylar qurilishini uzoq muddatli ipotekaviy kreditlash tizimida bir qator mexanizmlar joriy etildi. Bu davrda, shuningdek, banklarning strategiyalari naqd pul muomalasini mustahkamlashga, har bir filialda naqd pul zahiralarini shakllantirishga va o'z faoliyatida samaradorlikni oshirishga qaratildi. Valyuta bozorini liberallashtirishni davom ettirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'm konvertatsiyasini ta'minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog'liq bo'lgan omillar ham banklar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 2019 yilning 15 oktyabridan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta jamg'armasi Bitimining VIII moddasidagi majburiyatni qabul qildi. Natijada korxonalar joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu masala yuzasidan O'zbekistonning tashqi mablag'larni jalb etmay, amalda o'z resurslariga tayanib maqsadga erishgani yuksak e'tirofga sazovor. Mazkur choralar milliy valyuta konvertatsiyasidan foydalangan mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga yaqindan yordam berdi.

Bu haqiqatan ham boy va sermahsul faoliyatning qiziqarli davri edi. Markaziy bankning valyuta siyosati inflyatsiya darajasini ushlab turish va milliy valyuta kursi keskin tebranishining oldini olish barobarida eksportni rag'batlantirish hamda valyuta resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan edi. O'zbekistonning asosiy eksport tovarlariga nisbatan dunyo bozorlarida qulay narx kon'yunkturasi, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan valyuta siyosatining olib borilishi eksport va oltin-valyuta zaxiralari hajmining oshishiga imkon berdi. Bank tizimini isloh qilishga qaratilgan ishlar davom ettirildi. Uning asosiy yo'nalishlari sifatida banklar boshqaruvida aktsiyadorlarning rolini oshirish orqali korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, banklar moliyaviy barqarorligini ularning aktivlari, jumladan, valyuta aktivlari sifatini yaxshilash evaziga kuchaytirish, bank ishini yanada takomillashtirish va banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlarini tobora kengaytirish, tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi rolini oshirish va mulkchilikning barcha shaklidagi tadbirkorlik tuzilmalarining kredit resurslaridan (jumladan, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning liniyalari bo'yicha ham) foydalanish mexanizmi takomillashtirilganini qayd etish joiz. Jahon banki hisob-kitoblari ko'ra, tezkor internet foydalanuvchilarining 10 foizga ko'payishi yillik YaIM ko'lamini 0,4 foizdan 1,4 foizgacha oshirishi mumkin ekan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning mamlakat YaIMdagi ulushi har yili taxminan 20 foizga o'sishi (rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 7 foiz atrofida) uning ahamiyatini belgilaydigan ko'rsatkich sifatida qaraladi. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba - trakzaksion





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini birlashtiradi. Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi. Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan moliyaviy barqarorlik vositalari:

- Xatarlarning (risklarning) tahlili va baholanishi;
- bozor ishtirokchilari tomonidan risklarni idrok etish, xabardorligini oshirish va ularning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- moliyaviy infratuzilmalarni nazorat qilish va takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;
- moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish va zarur hollarda likvidlikni ta'minlash;
- oxirgi instant kreditor funksiyasini qo'llash;
- Moliyaviy barqarorlik masalalari bo'yicha qo'mita va boshqa vositalar.

O'zbekiston Respublikasining bank tizimi ikki darajali bo'lib, u Markaziy bank va tijorat banklaridan iborat. Ushbu tizim mamlakat iqtisodiyotining barqaror ishlashini ta'minlash va moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning samaradorligini oshirish uchun asosiy mexanizm hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Supiyevna, B. M. (2025). G'AZNACHILIK-DAVLAT MOLİYASINING ENG MUHIM BO'LAGI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(5), 117-123.
2. Supiyevna, B. M. (2025). BUDGETING IN THE PUBLIC SECTOR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 90-95.
3. Supiyevna, B. M. (2025). PRINCIPLES OF TAXATION. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(6), 111-116.
4. Supiyevna, B. M. (2025). THE US TAXES ON INCOME. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 221-226.
5. Supiyevna, B. M. (2025). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA «G 'AZNACHILIKNI JORIY ETISH» KONSEPSIYASINING YARATILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(6), 49-54.
6. Supiyevna, B. M. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLİYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 44-50.
7. Supiyevna, B. M. (2025). O'zbekistonda Davlat Moliyasi Faoliyatining Huquqiy Asoslari. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 94-101.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

8. Umedova, N., & Bazarova, M. S. (2025). OZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 4(2), 362-370.
9. Supiyevna, B. M. (2025). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR O 'SISHINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(5), 142-151.
10. Supiyevna, B. M. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 315-322.
11. Supiyevna, B. M. (2025). INSON SALOHİYATINI MEHNAT POTENSIALI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 197-204.
12. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. *Modern Science and Research*, 2(12), 506-512.
13. Бобоев, А. Ч., & Базарова, М. С. (2019). Хорижий инвестицияларнинг жозибадорлигини ошириш. *Интернаука*, (22-3), 88-90.
14. Bazarova, M. S., & Khudaiberdiyeva, O. Q. (2022). IMPROVEMENT OF THE MECHANISM OF INNOVATIVE MANAGEMENT OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 464-467).
15. Supiyevna, B. M., & Firusa, S. (2023). Strategic ways of implementing personnel policy in commercial banks. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(7), 22-25.
16. Supiyevna, B. M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Gospodarka i Innowacje*, 47, 134-139.
17. Supiyevna, B. M. (2023). USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje*, 41, 79-83.
18. Supiyevna, B. M. (2023). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Gospodarka i Innowacje*, 42, 381-386.
19. Supiyevna, B. M. (2022). Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalini boshqarish tizimini takomillashtirish.
20. Bazarova, M. S., & Shahboz, K. (2022). Ways to increase the efficiency of available tourist facilities in Uzbekistan. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 16-18.
21. Qudratova, G. M. (2025). THE EVALUATION OF UNIVERSITY COMPETITIVENESS: A REVIEW OF METHODOLOGIES. *SHOKH LIBRARY*.
22. Husenov, A., & Qudratova, G. (2025). RAQOBAT VA RAQOBAT STRATEGIYALARI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR. *Modern Science and Research*, 4(2), 292-299.
23. Sodiqova, N. (2025). METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' TECHNICAL THINKING IN ECONOMICS CLASSES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 885-891.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

24. Islomova, M., & Sodiqova, N. (2025). ILM-FAN VA TA'LIMDAGI INNOVATION RIVOJLANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI. *Modern Science and Research*, 4(2), 300-307.
25. Bahodirovich, X. B., & To'rayevna, S. N. (2025). LOMBARD TASHKILOTLARI VA ULARNING XIZMATLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 290-298.
26. Bahodirovich, X. B. (2025). XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB YURITISH SIYOSATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(6), 210-215.
27. Ёкубов, А. Б., & Алимова, Ш. А. (2024). МАКРОЭКОНОМИКА: ЭВОЛЮЦИЯ ТЕОРИИ И СОВРЕМЕННОЙ ПРАКТИКИ.
28. Abidovna, A. S. (2025). INVESTMENT PROJECTS: ADVANCED MANAGEMENT AND EVALUATION. *SHOKH LIBRARY*.
29. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 112-121.
30. Hakimovich, T. M. (2025). O 'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG 'BATLANTIRISH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIVAVIY VOSITALAR TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 141-150.
31. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 258-266.
32. EI, I. (2025). MINTAQALAR VA MA'MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLOVCHI IQTISODIY TIZIM SIFATIDA. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(6), 58-69.
33. Azimov, B. F., & Yodgorova, Z. Y. (2025). METHODS OF STUDYING THE STATE OF COMPETITION IN THE EDUCATIONAL SERVICES MARKET. *SHOKH LIBRARY*.
34. Azimov, B. F. (2025). INNOVATSIYALARNI QO 'LLAB-QUVVATLASH XIZMATLARI: ISPANIYA, POLSHA VA BOLGARIYA TAJRIBALARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(4), 12-23.
35. Raxmonqulova, N. O. (2025). DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY ON A GLOBAL SCALE AND THE EXPERIENCE OF COUNTRIES. *SHOKH LIBRARY*.
36. Қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6, 14.
37. Shadiyev, A. X. (2025). DEVELOPMENT OF THE CURRICULUM FOR ECONOMIC DISCIPLINES IN PRIVATE UNIVERSITIES. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(1), 389-396.
38. Shadiyev, A. X. (2025). METHODS OF TEACHING THE "ECONOMIC THEORY". *SHOKH LIBRARY*.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

39. Zaripova, G., & Naimova, N. (2025). INFLYATSIYA VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI. *Modern Science and Research*, 4(2), 371-378.
40. Akbarovna, N. N. (2025). PROBLEMS OF INCREASING INVESTMENT ACTIVITY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION. *SHOKH LIBRARY*.
41. Jumayeva, Z. (2023). BASICS OF NATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 2(12), 296-300.
42. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, 6(6), 118-124.
43. Tagayeva, R., & Bobojonova, M. J. (2025). BYUDJET, UNING SHAKLLANISHI VA TAQSIMLANISHI. *Modern Science and Research*, 4(2), 387-393.
44. Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). JAHON BOZORIDA YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH TENDENSIYASI: FAKTLAR VA KO'RSATKICHLAR ASOSIDA TAHLIL. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(4), 120-128.
45. Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
46. Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга Территории. *Miasto Przyszłości*, 55, 1411-1417.
47. Ibragimov, A. (2025). PROSPECTIVE WAYS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO THE NATIONAL ECONOMY. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 137-143.
48. Qahhorova, J., & Ibragimov, A. (2025). XORIY INVESTITSİYALAR ANAMIYATI, OMILLARI VA ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 4(2), 283-291.
49. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2025). ИНВЕСТИЦИОННЫЕ ПРОЕКТЫ: УПРАВЛЕНИЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 81-87.
50. Игамова, Ш. З. (2024). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОГО развития ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. *Gospodarka i Innowacje*, 43, 335-340.
51. Baxtiyorova, J., & Djurayeva, M. S. (2025). BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA RAQOBATNING ROLI. *Modern Science and Research*, 4(2), 477-485.

